Qabul qilindi: 5-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 8-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 10-noyabr 2026-yil

TALABALARNI SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHGA MOTIVATSION-BOSQICHLI (ARCS) YONDASHUV ASOSIDA TAYYORLASH: PEDAGOGIK EKSPERIMENT

Xudoyberdiyeva Shoxsanam Mukumjonovna
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. tesizda talabalarni sinfdan tashqari ishlarni samarali tashkil etishga tayyorlash jarayonini motivatsion-bosqichli (ARCS) yondashuv asosida takomillashtirish masalalari yoritilgan. Unda ARCS modelining asosiy tarkibiy qismlari – diqqatni jalb etish (Attention), dolzarblikni ta’minlash (Relevance), o‘ziga ishonchni shakllantirish (Confidence) hamda qoniqish hosil qilish (Satisfaction) tamoyillarining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ARCS modeli, motivatsion yondashuv, sinfdan tashqari ishlar, pedagogik eksperiment, kasbiy tayyorgarlik, talabalar motivatsiyasi, pedagogik kompetensiya, ta’lim-tarbiya jarayoni.

Hozirgi ta’lim tizimida talabaning faqat auditoriya mashg‘ulotlarida faol bo‘lishi yetarli hisoblanmaydi. Ta’lim jarayonining samaradorligi tobora ko‘proq auditoriyadan tashqari faoliyatning mazmuni, sifati va motivatsion asoslanganligi bilan belgilanmoqda. Chunki aynan darsdan tashqari ishlar talabaning o‘zlashtirgan bilimlarini chuqurlashtirish, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish, shaxsiy qiziqishlar asosida bilimni qayta ishlash hamda o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyalarini takomillashtirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bu kabi ishlar ko‘pincha tizimsiz va tashqi nazoratga tayangan holda tashkil etiladi, bu esa ta’lim oluvchilar motivatsiyasining pasayishiga, topshiriqlarning yuzaki bajarilishiga va kutilgan ta’limiy natijalarning to‘liq amalga oshmasligiga olib keladi.

Mazkur muammolar auditoriyadan va sinfdan tashqari ishlarni faqat tashkiliy jihatdan

emas, balki psixologik va motivatsion mexanizmlar asosida qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Ayniqsa, talabaning ushbu faoliyatga tayyorlash, muammoning shaxsiy ahamiyatini anglash, vazifani bajarishga doir ishonch hosil qilishi hamda natijadan qoniqish olishi kabi omillar darsdan tashqari ishlarning barqarorligini belgilovchi asosiy shartlar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan ta’lim jarayonida motivatsiyani tizimli boshqarishga imkon beradigan, ilmiy asoslangan modellarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Ana shunday motivatsion-bosqichli yondashuvlardan biri – **ARCS** bo‘lib, u sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda talabaning motivatsion holatini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv diqqatni jalb qilish, mazmunning dolzarbligini ochish, o‘z kuchiga ishonchni mustahkamlash va natijadan qoniqish hosil qilish kabi o‘zaro bog‘liq komponentlar orqali sinfdan tashqari faoliyatni yaxlit pedagogik mexanizm sifatida tashkil etish imkonini beradi. Shu sababli yondashuv asosida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish mexanizmini ishlab chiqish va uni amaliyotda sinab ko‘rish bugungi ta’lim tizimi uchun dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Ushbu yondashuv sinfdan tashqari ishlarni tasodifiy topshiriqlar majmuasi darajasidan chiqarib, ularni motivatsion, metodik va tarbiyaviy jihatdan izchil tashkil etilgan ta’limiy jarayonga aylantirishga xizmat qiladi.

ARCS motivatsion yondashuvi ta’lim jarayonida o‘rganishga bo‘lgan munosabatni tizimli ravishda shakllantirish va boshqarishga qaratilgan ilmiy yondashuv hisoblanadi[1]. U amerikalik psixolog **John Keller** tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u ta’lim jarayonida motivatsiyani loyihalash (motivational design) masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar natijasida shakllangan. Keller ARCSni mustaqil o‘quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etishda motivatsion omillarni hisobga olishga xizmat qiladigan nazariy-metodik model sifatida asoslab bergan.

ARCS yondashuvi to‘rtta asosiy komponentni o‘z ichiga oladi:

1) diqqat (attention);

[1] Khudoyberdieva Sh.M. Model ARCS studentlar motivatsiyasini oshirishdagi usul sifatida // Xalq ta’limi: ilmiy-nazariy jurnal. – 2024. № 6. – B. 58-64.

2) ahamiyatlilik (relevance);

3) ishonch (confidence);

4) qoniqish hissi (satisfaction).

C.Y.Tsai va boshqalarning fikriga ko‘ra, ushbu komponentlar o‘rganish jarayonida talabada muayyan bir faoliyatga motivatsiyaning qanday paydo bo‘lishi, rivojlanishi va mustahkamlanishini izohlovchi pedagogik-psixologik mexanizmlar sifatida talqin etiladi[2]. Ushbu model “yondashuv” kontekstida tadqiqot ishi doirasida tajriba sifatida adaptiv qo‘llanildi.

ARCS motivatsion yondashuvi turli sohalarda faoliyat yuritgan olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar doirasida qo‘llanilgan. Xususan, mazkur model muallifi **John M. Keller**[3] o‘z tadqiqotlarida ARCS yondashuvini oliy ta’lim va mustaqil o‘quv faoliyatini loyihalash jarayonida talabalarning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini tizimli shakllantirish maqsadida qo‘llagan. Uning ishlarida ARCS modeli o‘quv jarayonida diqqatni jalb qilish, o‘rganilayotgan mazmunning shaxsiy va kasbiy ahamiyatini ochib berish, o‘z kuchiga ishonchni mustahkamlash hamda ta’lim natijasidan qoniqish hosil qilishga xizmat qiluvchi ilmiy mexanizm sifatida asoslangan. Shuningdek, **C.Y.Tsai**[4] va uning hamkorlari ARCS yondashuvini raqamli va onlayn ta’lim muhitida o‘tkazilgan tadqiqotlarida qo‘llab, uning o‘quvchilarning faolligi, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi va ta’lim jarayonida ishtirok etish darajasini oshirishdagi samaradorligini aniqlashni maqsad qilganlar. Ushbu tadqiqotlarda ARCS modeli elektron kurslar va masofaviy ta’lim sharoitida motivatsiyani barqaror saqlash vositasi sifatida talqin etilgan.

Bundan tashqari, **Hu**[5] va **Chen**[6] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ARCS

[2] Tsai C.Y., Shih W.L., Hsieh F.P., Chen Y.A., Lin C.L., Wu H.J. Using the ARCS model to improve undergraduates’ perceived information security protection motivation and behavior // Computers & Education. – 2022. Vol. 181. – P. 148-153.

[3] Keller J.M. Motivational design of instruction // Instructional Design Theories and Models: An Overview of Their Current Status / Ed. C.M. Reigeluth. – Hillsdale, NJ : Lawrence Erlbaum Associates, 1983. – P. 383-434.

[4] Tsai C.Y. An examination of motivation in online learning using the ARCS model // International Journal of Learning Technology. – 2012. – Vol. 7, No. 3. – P. 271-285.

[5] Hu P. J. Examining the role of learning motivation in technology-mediated learning // Journal of the Association for Information Systems. – 2007. – Vol. 8, No. 9. – P. 470-494.

[6] Chen S.Y. Effects of an individualized ARCS-based learning approach on students’ motivation and performance // Educational Technology Research and Development. – 2015. – Vol. 63, No. 3. – P. 425–447.

yondashuvi kasbiy tayyorgarlik va amaliy mashg‘ulotlar jarayonida qo‘llanilib, uning o‘rganilayotgan bilim va ko‘nikmalarning amaliy ahamiyatini anglash, o‘zini boshqarish va refleksiv fikrlashni rivojlantirishdagi roli o‘rganilgan.

Tibbiyot ta’limi sohasida esa **Cook**[7] va boshqa tadqiqotchilar ARCS modelini klinik simulyatsiya mashg‘ulotlari va malaka oshirish kurslarida qo‘llab, uning murakkab bilim va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonida o‘rganuvchilarning ishonchini kuchaytirish hamda o‘quv faoliyatidan qoniqish hosil qilishdagi ta’sirini aniqlashni maqsad qilganlar. Mazkur tadqiqotlar ARCS motivatsion yondashuvining nafaqat pedagogik ta’limda, balki raqamli ta’lim, kasbiy tayyorgarlik va tibbiyot ta’limi kabi turli sohalarda ham samarali qo‘llanishi mumkin bo‘lgan universal ilmiy model ekanini ko‘rsatadi.

ARCS yondashuv amaliyotda o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish, ta’limiy faoliyatni motivatsion jihatdan boyitish va ta’lim natijalarini mustahkamlashda samarali qo‘llaniladigan ilmiy yondashuv sifatida e’tirof etiladi[8] (qarang 2.1.1-rasm).



[7] Cook D.A. Motivation to learn: An overview of contemporary theories // Medical Education. – 2016. – Vol. 50, No. 10. – P. 997-1014.
[8] Afjar A.M., Musri, Syukri M. Attention, relevance, confidence, satisfaction (ARCS) model on students’ motivation and learning outcomes in learning physics // Journal of Physics: Conference Series. – 2020. Vol. 1460. – P. 109-121.



2.1.1-rasm. ARCS yondashuvi asosida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish mexanizmi: pedagogik eksperiment.

Talabani bo‘lajak o‘qituvchi sifatida umumta’lim maktablarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishga tayyorlashda pedagogik oliy ta’limdagi quyidagi tizim (mexanizm) muhim rol o‘ynaydi:

Bilim (nazariy fanlar orqali) + amaliy mashg‘ulot + pedagogik amaliyot (4+2), ijtimoiy muhit + shaxsiy rivojlanish

Bundan ko‘rinadiki, talaba nazariy bilimlarni oshirishda, ayniqsa pedagogika nazariyasi, tarbiya nazariyasi, yosh davrlari psixologiyasi hamda metodika fanlarini puxta

o‘zlashtirishi zarur. Olingan bilimlarni esa, bevosita amaliy mashg‘ulotlar orqali mustahkamlashi, tadbirlar tashkil etish, guruhlar bilan ishlash malakasiga ega bo‘lishi lozim. Pedagogik amaliyot bu borada eng muhim bosqich hisoblanadi va eksperiment yondashuv asosida talabaning kasbiy kompetensiyasi rivojlanib boradi.

Ana endi quyida **ARCS yondashuvi**ning har bir komponentlari va uni sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish borasidagi o‘rni xususida fikr yuritiladi:

I. A – ATTENTION (diqqat, e’tibor).

Yuqorida ta’kidlanganidek, talabani sinfdan tashqari ishlar faoliyatiga tayyorlashda nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar muhim o‘rin tutadi. Bu borada “**diqqat” fenomeni** ta’lim jarayonida axborotni tanlash, uni kognitiv qayta ishlash va maqsadli faoliyatga yo‘naltirishni ta’minlaydigan psixologik mexanizm sifatida talqin qilinadi. Talaba bir vaqtning o‘zida ko‘plab tashqi ta’sirlar, ichki fikrlar va ehtiyojlar fonida o‘rganish mazmuniga yo‘nala olishi uchun diqqat resurslari safarbar bo‘lishi zarur.

M.M.Fatashning ta’kidlashicha, sinfdandan tashqari ishlar sharoitida bu omil yanada dolzarb bo‘ladi, chunki auditoriya ichidagi qat’iy tartib, tezkor teskari aloqa, o‘qituvchi nazorati hamda dars rejimining majburiy mexanizmlari kamayadi[9]. Shunday vaziyatda diqqat o‘quvchining o‘quv mashg‘ulotiga kirishishini, vazifa bo‘yicha aqliy “start” holatini, ya’ni ishga kirishish uchun zarur bo‘lgan ichki tayyorgarlik va faollikni shakllantiradi.

Pedagogik nuqtayi nazardan diqqatni uyg‘otish va ushlab turish bir-birini to‘ldiradigan ikki yo‘nalishda kechadi. Birinchi yo‘nalishda yangilik, muammolilik, qiziqarli taqdimot, vizual va amaliy elementlar orqali e’tibor jalb qilinadi. Ikkinchi yo‘nalishda vazifa tarkibiga kognitiv faollikni talab qiladigan amallar kiritiladi: tahlil qilish, tanlash, solishtirish, izohlash, dalillash, qayta tuzish[10]. Diqqat barqarorlashgan sari talaba mavzuni yuzaki kuzatish bilan cheklanmaydi, balki asosiy g‘oyalarni ajratadi, mantiqiy bog‘lanishlarni izlaydi, o‘zlashtirish strategiyasini ongli ravishda tanlaydi.

[9] Fatash M.M. Investigating the Students’ Attitude towards Using Extracurricular Activities to Enhance their Motivation at the English Department at An-Najah University // Dirasat: Educational Sciences. – 2008. Vol. 35, Suppl. (1). – P. 719-729.
[10] Xamraliyeva O.M. Ijtimoiy-intellektual faollikning ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati // International Journal of Science and Technology // Qarshi Ilmiy-nazariy jurnal. – 2025. Vol. 2, No. 6. – B. 94-95.

Diqqatning shakllanishi keyingi bosqich uchun tayanch yaratadi: talaba mavzuga kirishib olganidan so‘ng uning ichida tabiiy savol paydo bo‘ladi, ya’ni o‘rganilayotgan mazmunning shaxsiy va amaliy qiymati nimada. Aynan shu nuqtada diqqatdan ahamiyatlilikka o‘tish mantiqan yuzaga keladi.

II. R – RELEVANCE (ahamiyatlilik).

Talabani sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishga tayyorlashda “ahamiyatlilik” – markaziy motivatsion fenomen hisoblanadi, chunki u talabaning ushbu faoliyatni majburiyat emas, shaxsiy va kasbiy ehtiyoj sifatida qabul qilishiga zamin yaratadi. Nima uchun “ahamiyatlilik” hal qiluvchi? Chunki, sinfdan tashqari ishlar – to‘g‘ridan-to‘g‘ri baholashga kam bog‘liq, ixtiyoriylik darajasi yuqori va ichki motivatsiyani talab qiladi. Talaba “bu faoliyat mening kelajak kasbiy faoliyatimda muhim o‘rin tutadi” deb anglamasa, tayyorlik shakllanmaydi. Demak, sinfdan tashqari ishlar aynan shu mexanizmga tayanadi: talaba “bu bilim menga nima beradi?” degan savolga aniq javob topganida, u vazifaga ongli ravishda kirishadi va o‘rganishni o‘z maqsadlari bilan bog‘laydi[11].

Ahamiyatlilikning shakllanishi keyingi bosqichni tabiiy ravishda chaqiradi: agar fan men uchun muhim bo‘lsa, uni bajarishim kerak, biroq men buni uddalay olamanmi, vaqtni boshqara olamanmi, natijaga chiqa olamanmi? degan ichki savollar paydo bo‘ladi. Shu tarzda ahamiyatlilik bosqichi ishonch bosqichiga o‘tish uchun psixologik zamin yaratadi.

III. C – CONFIDENCE (ishonch).

Talabani sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishga tayyorlashda “ishonch” hal qiluvchi psixologik-pedagogik omil hisoblanadi, chunki u talabani: mazkur faoliyatda ishtirok etishga jur’at qilish, qiyinchiliklarni yengib o‘tishi, o‘zini subyekt sifatida namoyon etish imkoniyatlarini belgilab beradi.

Ma’lumki, sinfdan tashqari ishlar noaniq vaziyatlar, ijodiy vazifalar, ochiq muloqot va tashabbusni talab qiladi. Agar talabada ikkilanish bo‘lsa, u hatto ahamiyatni anglagan bo‘lsa ham faollik ko‘rsata olmaydi. Ishonch – qo‘rquvni kamaytiradi, birinchi qadamni qo‘yishga

[11] Каримов З.Ф. Мотивационные технологии в дополнительном образовании: применение ARCS-модели // Педагогика и социум. – 2021. № 3. – С. 112-118.

undaydi, faoliyatni oxirigacha olib boradi va o‘z imkoniyatlarini real baholaydi. Ishonch sust bo‘lsa, vazifani cho‘zish, boshlamaslik, orada uzilishlar qilish, yarmida tashlab qo‘yish kabi holatlar ko‘payadi[12]. Talaba vazifani “uddalay olaman” degan ichki fikrga kelganida, faoliyat ritmi barqarorlashadi, mas’uliyat hissi ortadi, qiyinchiliklar “to‘siq” sifatida emas, “hal qilinadigan vazifa” sifatida qabul qilinadi. Shu tariqa sinfdan tashqari ishlar davomiylikka ega bo‘ladi va talaba o‘z o‘quv faoliyatini boshqaradigan subyekt sifatida shakllanadi.

IV. S – SATISFACTION (qoniqish hissi).

Talabani sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishga tayyorlashda “qoniqish” – motivatsion jarayonning yakunlovchi va mustahkamlovchi bo‘g‘ini hisoblanadi. Nima uchun “qoniqish” muhim? Sinfdan tashqari ishlar ko‘p holatda tashqi rag‘bat bilan emas, ichki hissiy baholash bilan mustahkamlanadi.

Qoniqish talabaning bajargan ishidan ruhiy mamnun bo‘lishi, mehnat natijasini qadrlashi va o‘rganishga ijobiy munosabatni mustahkamlash jarayonidir. Qoniqish shakllanmagan taqdirda, bajarilgan ish “yakunlangan topshiriq” sifatida qabul qilinadi va keyingi faoliyatga o‘tishda motivatsion uzilish paydo bo‘lishi ehtimoli ortadi. Qoniqish esa o‘quv faoliyatini ijobiy emotsional tajribaga aylantiradi: talaba o‘zining o‘sishini sezadi, natijaning qiymatini his qiladi, “mehnatim bekor ketmadi” degan ichki xulosaga keladi. Shu tarzda qoniqish ichki rag‘bat manbaiga aylanadi va motivatsion sikl yakunlanadi.

[12] Худойбердиева Ш.М. Модель ARCS как средство повышения эффективности самостоятельной работы студентов педагогических вузов Узбекистана (на примере курса «Педагогическое мастерство») // Universum: психология и образование (электрон. научн. журн.). – 2025. № 11 – С. 137-142.